

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING
PEDAGOGIKA INSTITUTI

**PEDAGOGIK TA'LIM: XALQARO
TAJRIBA VA INNOVATSION
YONDASHUVLAR**

*mavzusidagi an'anaviy ilmiy-amaliy anjuman
materiallari*

(Buxoro, 2022-yil 6-aprel)

Pedagogik ta'lim: xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar [Matn]:
maqola va tezislari to'plami.

MAS'UL MUHARRIR:

Tosheva D.A. – f.f.f.d. (PhD)

TAQRIZCHILAR:

Saidova M.J. – p.f.f.d. (PhD), dots.

Tosheva N.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.

TO'PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

Saidova R.A. – f.f.f.d. (PhD)

Sobirova D.R. – o'qituvchi

Yoqubova Sh.Y. – o'qituvchi

Murodova G.A. – o'qituvchi

Yoqubova Sh.Y. – o'qituvchi

Ushbu an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanning ilmiy maqola va tezislari to'plamida ilm-fan va ta'lim tizimidagi keng ko'lamli islohotlar, pedagogik ta'limda xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar borasida fikr va tajriba almashish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish, tadqiq etishga qaratilgan takliflarni qamrab oluvchi ilmiy, amaliy hamda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar, bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

SPORTCHILARNING IRODAVIY SIFAQTLARINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Salixov Shoxrux Mansurovich

BuxDU Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

salixovshoxrux@gmail.com

Salixov Timur Mansurovich

BuxDU jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti

kafedrası o'qituvchisi

Salixovtimur9@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak sportchi chempionlarni tayyorlashda ularning individual-psixologik sifatlarini o'rganish, ya'ni irodaviy sifatlarini o'rganish alohida o'rin talab etadi. Eng avvalo, irodaviy jarayonlar bu inson xarakter sifatlaridir, har bir sportchining kelajakda yetuk natijalarga erishishiga asosiy omil bo'lib uning xarakter sifatleri xizmat qilishi haqida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sport jarayonlari, irodaviy sifatlar, xorij psixologiyasi, jismoniy tarbiya, sport psixologiyasi, psixologik nazariyalar

Iroda muammosining psixologiyada yetarlicha o'rganilmaganligi bugungi kunda zamonaviy psixologlar tomonidan tan olingan. Psixologiyaga doir kontseptsiyalarda uzoq vaqt davomida markaziy o'rinni egallab turgan ushbu tushunchani hozirgi paytda muhokama qilganimizda, o'zining to'laqonli ma'nosini bildirishida ayrim noaniqliklar yuzaga kelmoqda. Tadqiqotchilar orasida irodani aniqlash va u bilan bog'liq bo'lgan hissiy irodaviy harakatlar, shuningdek hissiy irodaviy kuchlanish, hissiy irodaviy boshqarilish, ayniqsa hissiy irodaviy o'zini-o'zi boshqarish masalalarining barchasi tortishuvlarga, bahslarga sabab bo'layotganligi bois, iroda termini bilan ma'no anglatuvchi voqe'liklar haqidagi fikrlarda o'zaro bir xulosaga kelinmagan.

“Iroda” tushunchasining falsafa, psixologiya, huquqshunoslik va tibbiyotdagi oʻrganilishida qisman moslik boʻlsada, ammo ushbu sohalardagi “soʻzlar ustidagi muzokaralar”ning paydo boʻlishi muammolarning chuqurlashib borishiga sabab boʻlmoqda, – deya iroda muammosiga qoʻyilgan chegara yuzasidan deyarli bir toʻxtamga kelinmaganligini taʼkidlaydi V.A.Ivannikov. – Iroda haqidagi sodda tasavvurlar va har bir tadqiqotchining shaxsiy tajribalari xulqning hissiy irodaviy boshqaruvi haqida psixologik aspektlarni oʻrganib chiqishda qoʻshimcha muammolarni hosil qiladi”. Rossiya psixologlarining koʻpgina eksperimental va amaliy tadqiqotlaridan irodaning har xil aspektlariga doir muammoga boʻlgan qiziqishining susayganligiga guvoh boʻlamiz.

Xorijiy psixologiyada esa oʻtgan asrning 30-yillaridan boshlab, aksincha iroda haqidagi tushunchalarning susayganligi bois, shu muammoga boʻlgan qiziqishlar ortib bormoqda. Dunyo psixologiyasidagi bunday ahvol ushbu muammoga doir savollarni oʻrganishga boʻlgan qiziqishlarni koʻpayishiga undaydi. Bunga javoban psixologik kategoriyalar tizimida iroda haqidagi tasavvurlarning rivojlanish tendentsiyasi, iroda tushunchasi tarkibidagi oʻzgarishlar uning oʻrni va rolini aniqlashni talab qiladi. Odamning xulq-atvori haqidagi tasavvurlar kontekstida iroda tushunchasi vujudga kelgan boʻlib, uning oʻrganilishida umumiylikning mavjudligi tabiiy edi va shuning uchun iroda tushunchasi inson harakatlarining vujudga kelishi haqidagi tasavvurlarni (determinatsiya, maqsadlar, tanlovi, harakatlar regulyatsiyasi va qoʻzgʻalish va shu kab.) qamrab olishi kerak edi.

Zamonaviy psixologiyada harakatlarning paydo boʻlishi va amalga oshishi jarayonlarini toʻgʻriroq tushunish iroda tushunchasini boshlangʻich aloqasini boshqa tushunchalar bilan aloqasini bir xilligini aniqlashni talab qiladi. Birinchi galda mavjud jarayonlarda qatnashuvchi innitsiatsiya – oʻz fikrini bildirish-harakatlarni amalga oshirish jarayonlari koʻrsatadi. Yaʼni, motivatsiya, regulyatsiya, harakatlar tanlovi, shuningdek, shaxsiy bilish differentsiatsiyasi

bo'lib, bular har xil harakatlar harakteristikasini aniqlab keladi. Masalan, qat'iylik, yechimlilik, bir so'zlilik kabilar.

Iroda muammosi tarixiga bag'ishlangan maxsus ishlar deyarli yo'q. Rossiya psixologiyasida ayni muammo bo'yicha umumiy tahlil va obzorlar V. I. Selevanov ishlarida va M.G.Yaroshevskiy, S.L.Rubinshteyn qo'llanmalarida yoritilgan. "Iroda" atamasi antik falsafada reallik sifatida tushuntirilib, Aristotelning qo'lyozmalarida aniq keltirilgan. Uning fikricha, bunday tushuncha, harakatning tug'ilishi, inson xohishlariga emas, uning bajarilishini ongli yechimini amalga oshirilishini tushuntirish uchun kerak edi. Bilimlarning o'zigina qo'zg'atuvchi kuchga ega emas, lekin insonning real axloqiy harakatlari bilan to'qnash kelib, uning shunday qilishni xohlagani uchun emas, shunday qilish shart bo'lganligi uchun bajarilayotganiligi bizga ma'lumdir. Aristotel esa bunday xulq initsiatsiyasini tashkil etuvchi kuchni qidirishga majbur bo'ldi.

Uning fikricha, ongli harakatni bilim emas, boshqa kuch chaqiradi va ushbu kuch ruhiyatning ongli qismida, ongli yechimning intilishi bilan birlashuvi orqali, yechimga qo'zg'atuvchi kuch bilan ta'sir qiladi, aniqrog'i yechimga qo'zg'atuvchi kuch berish paytida vujudga keladi. Buning imkoniyati shundaki, odam xatti-harakatini "intilish predmeti harakatga keltirib, bu orqali yechimga keladi, chunki intilish predmeti uning uchun boshlanish hisoblanadi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salixov.Sh. va boshq. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
2. Salixov.Sh va boshq. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
3. Sh. Salihov. Psychological Features of Formation of Emotional-Will Sphere of Athlete Personality // Интеллектуал archive. – 2020. – Т. 9. – №. 1. – С. 226-

4. Shohruxh Salikhov, Timur Salikhov, (2021). Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //The American Journal of Social Science and Education Innovations.– 2021. – T. 3. – №. 5. – C. 205-210.
5. Jobirovich Y. M. The Role Of Digital Technologies In Reform Of The Education System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 04. – C. 461-
6. T. Salikhov, Temperamental Properties of Personality and its Importance in Organization of Sports Activity // Intellektual archive. – 2020. – T. 9. – №. 1. – C. 221-
7. Шохруҳ САЛИХОВ, Тимур САЛИХОВ. ҲУҚУҚЧИЛАРДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХО-ФИЗИОЛОГИК АСОСЛАРИ // PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal (buxdu.uz). – 2020. – №. 6. – C. 80-84.
8. Shoxrux Mansurovich Salixov, Timur Mansurovich Salixov. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish //SCIENCE AND EDUCATION. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 1013-1020.
9. M. L. Umedjanova, Teacher of the Department of Pedagogy, Psychology and Technological Education of the Pedagogical Institute of Bukhara State University, Sh. M. Salikhov. Teacher of the Department of Psychology of Bukhara State University, Salikhov T. M. Teacher of the Department of Theory and Methods of Physical Culture of Bukhara State University//European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) – 2022. – T. 2. – №. 2. – C.271-276.